

AMIR TEMUR HAYOTI VA ULKAN SALTANATNING VUJUDGA KELISHI

¹Sojida Boltayeva To'rayevna

*¹Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani 1-umumiy o'rta ta'lim
maktabi tarix fani o'qituvchisi +998994204148*

Annotatsiya: Amir Temur - buyuk davlat asoschisi. U Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar g'oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos soldi. Bundan tashqari Amir Temur davlatiga Kichik Osiyo, Suriya, Misr va shim.-g'arbda Quyi Volga, Don buylari; shim.-sharqda Balxash ko'li va Ili daryosigacha; jan.- sharqda esa Shim. Hindistongacha bulgan mamlakatlar buysundirildi. Amir Temur davlatni aql-zakovot va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning "... davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim", degan so'zlari buning yorqin dalilidir.

Kalit so'zlar: *Amir Temurning yoshligi, Siyosiy faoliyatining boshlanishi, "Buyuk amir" sifatida saylanishi.*

Аннотация: Амир Темур – основатель великого государства. Он основал огромное централизованное царство, охватывающее огромную территорию от Индии и Китая до Черного моря, от Сырдарьи и Аральского моря до Персидского залива. Кроме того, в состав государства Амира Темура входили Малая Азия, Сирия, Египет, реки Нижняя Волга и Дон на северо-западе; на северо-востоке до озера Балхаш и реки Или; янв.- на востоке и в Шиме. Страны вплоть до Индии были порабощены. Амир Темур правил страной, опираясь на разведку и правовую основу. Его слова о том, что «...девять частей государственной работы я осуществил советом, мероприятиями и консультациями, а остальную часть - мечом» - яркое тому подтверждение.

Ключевые слова: *юность Амира Темура, начало его политической карьеры, избрание «Великим Амиром».*

Abstract: Amir Temur is the founder of a great state. He founded a huge centralized kingdom, covering a vast territory from India and China to the Black Sea, from the Syr Darya and the Aral Sea to the Persian Gulf. In addition, the state of Amir Temur included Asia Minor, Syria, Egypt, the Lower Volga and Don rivers in the north-west; in the northeast to Lake Balkhash and the Ili River; January - in the east and in Shima. Countries as far as India were enslaved. Amir Temur ruled the country based on intelligence and legal framework. His words that "... I carried out nine parts of government work with advice, events and consultations, and the rest with the sword" are clear confirmation of this.

Key words: *Amir Temur's youth, the beginning of his political career, election as the "Great Amir."*

Amir Temur - dunyoda tarixida juda katta nom qoldira olgan buyuk sarkarda, O'rta asrlarning eng mashhur afsonaviy qo'mondoni, ulkan imperiya asoschisi, Temuriylar sulolasining bosh bo'g'ini, kuchli strateg va siyosatchi, hayotida davomida biror marta bo'lsa ham raqibga yengilmagan buyuk inson. 9-aprel kuni Amir Temurning tavvalud kuni yurtimizda katta tantanalar bilan nishonlanadi. Buyuk sarkarda, adolatli shoh Amir temur Markaziy Osiyoda mo'g'ullarning 150 yillik hukmronligini tugatib, buyuk davlat tuzgan va uni dunyoga tanitgan shuningdek, Movarounnarxda fan va madaniyat ravnaqining asosini yaratgan shaxs sifatida mashxurdir. U o'z davrining eng qudratli shoxlaridan hisoblangan turk podshosi Boyazid Yildirimni tor-mor qilib, Bolqon yarim orolidagi halqlar va mamlakatlarga ozodlik bag'ishlagan. Oltin o'rda xoni To'xtamishni yengib, Rossiyaning mug'ullar hukmrligi asoratidan qutilishni qariyb 300 yilga tezlashtirgan. O'z davrida Movarounnarxda xunarmadchilik, qurilish, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirgan. Amir Temurning ko'p qirrali faoliyati, murakkab shaxs, ekanligi o'sha davrda yozilgan qator asarlarda ifodalangan. Hofizi Abruning «Zubdatut tavorix», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Fasix Ahmad Havodiyning «Mujmali Fasihiy», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlaus sa'dayn va majmaul baxrayn». Ibn Arabshohning «Ajoyibal maqdur» nomli asari o'sha davrning qimmatli yozma manbalaridan xisoblanib, ularda Amir Temurning hayoti va kup qirrali faoliyati ma'lum darajada hikoya qilinadi. Amir Temur 1336-yilda Shahrisabzga yaqin Xuja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. Uning otasi Amir Tarag'ay Qozon xoniga tobe (Kesh hozirgi Shahrisabz) hokimi bulgan. Yosh Temurning dastlabki savodi oilada chiqarilgan va 7 yoshidan madrasada o'qiy boshlagan. Bu xaqda u o'zining «Tarjimai holi»da shunday yozgan: «Etti yoshga tulganimda meni madrasaga olib borishdi va qushimcha suzlar jadvalini berishdi. Men uqiy boshladim va erishgan muvaffaqiyatlarimdan behad xursand buldim». Tadqiqotchi olim B. Ahmedovning ta'kidlashicha, Temur madrasaga kelganda harf taniydigan bo'lgan. Shuning uchun ham jadvaldagi suzlarni uqiy bilgan. Movarounnarx va Xuroson madrasalaridagi odat buyicha bolani uqishga urgatishda qog'oz yo teriga yozilgan eng oson so'zlar jadvalidan foydalanilgan. Temur xam bolaligida shunday jadvalni o'qigan Temuriylar davridagi madrasalar O'rta Sharq qurilish rejasiga binoan eng ko'rkam qilib qurilgan. XV asrda madrasalar to'g'ri burchakli reja asosida qurilib, tevarak-atrofi devor bilan o'ralgan. Xonalari tashqaridan qaralganda ko'rinmaydigan bo'lgan. Temurning o'zi Bibi Xonim madrasasini qurishda tashabbuskor bo'lgan. Samarqanddagi Muhammad Sulton madrasasining qurilishiga ham alohida e'tibor bergan. Ba'zi masalalar bo'yicha murojaat etgan kishilarni yuqoridagi madrasalarda

qabul qilib, ularning arzlarini eshitgan hamda diniy masalalarni o`sha joyda hal qilgan. Amir Temur tuzuklari faqat davlat boshqarish uchun bulmay, balki har bir katta va kichik jamoani boshqaruvchi rahbarlar uchun ham zarurdir. Tuzuklarda rahbarga xos fazilatlar quyidagicha ifodalanadi: 1) Ishbilarmon odam, adolatli rahbar, yaxshi oilaboshi bulishi bilan birga, mard va shijoatli fazilatlarga ega bulishi; 2) Har bir tadbirda uzoqni uylab ish kurish, sezgir bulishi; Har bir ishda maslahat olmoq zarurligi. Shuningdek, u maslahatni ikkiga bulgan edi - birinchisi til uchida aytilgan, ikkinchisi yurakdan chiqqani. Ana shu yurakdan chiqqan maslahatga doimo quloq solish kerak, deganlar. Amir Temur uz avlod va ajdodlari hamda farzandlariga yuqoridagi sifatlardan kelib chiqib saltanatni boshqarish haqida dasturulamal yozib qoldirdi. Amir Temurning bu dasturida davlatni boshqarish tuzuklari alohida o`rin egallaydi: 1. Dilimning mashriqidan ko`tarilgan birinchi tuzuk shundan iborat buldiki, islom dinini yoygan Muhammad, unga tangrini marhamatlari va salomlari bulsin, shariatni quvvatladim. Jahonning turli mamlakatlaridagi yaxshi odamlar orasida yoydim. Demak, musulmonchilikdagi ilg`or g`oyalarni rivojlantirib, unga amal qildim. 2. Amr qilamanki, vazirlar ushbu turt sifatga ega bulsinlar: a) asllik, toza nasllik; b) aql-farosat; v) sipohu raiyat avlodidan xabardor va ularga xushmuomalada bulish; g) sabr, chidamlilik, tinchliksevarlik. Bunday fazilatli vazirlarga ishonch, imtiyoz, e'tibor va iqtidor berdim. Amir Temur tuzuklarining birida amirlik mansabini shunday shaxslarga berilsin degan edi: asli toza, pok nasllik, aql-farosatlik, bahodir, dovyurak, tadbirkor, sergak, ehtiyotkor kabi fazilat egalari. Amir Temur muomala madaniyatiga alohida e'tibor bergan edi. Turon mamlakatini fath etgan kunim va poytaxt Samarqandda saltanat taxtiga utirganimdan sung, dustu-dushman bilan muomalada, bir tekis yul tutdim. Menga yomonlik qilgan, menga qarshi qilich yalang`ochlagan ba'zi amirlar qurquvda edilar. Ularga shunday yaxshiliklar qildimki, mening ino'yatim va xayr-ehsonimni kurib uzlari sharmanda buldilar. Kimni ranj etgan bulsam, ehsonu in'omlar bilan kunglidagi xafagarchiilikni chiqardim va martabalar, imtiyozlar berdim. Shunday qilib, XIV asrning ikkinchi yarmidan XVII asrgacha bulgan davr Movarounnahrda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yuksalish davri buldi. Markazlashgan davlatning asoschisi Amir Temur uz imperiyasini tuzib, uning iqtisodiy va madaniy qudratini yuk'saklikka kutardi. Uni Ovrupo Ba Sharqda eng qudratli davlatga aylantirishga erishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.Yaxshilikov. Sh.Axadov. Temiriylar ma'naviyati. Toshkent. Fan nashriyoti - 1999
2. S.Mamashokirov. Sh.Tog'ayev. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. Toshkent. Ma'naviyat, 2007 yil.
3. B.Axmedov, A.Aminov. "Temur tuzuklari". Toshkent – 2007.